

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
RESPUBLIKA O'RTA TIBBIYOT VA FARMASEVTIKA XODIMLARI
MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH
MARKAZI**

«TASDIQLAYMAN»
Direktorlar kengashi raisi
L.X.Musadjanova
2025-y. « 5 » 03/



Bilimlar sohasi: Sog'liqni saqlash

TIBBIYOT BRIGADA HAMSHIRALARI

(sikli bo'yicha malaka oshirish guruhleri uchun)

O'QUV DASTURI

(144-kredit)

Toshkent-2025 yil

TUZUVCHILAR:

U.A.Tursunboyeva

Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika
xodimlari malakasini oshirish va ularni
ixtisoslashtirish markazi o'qituvchisi

M.M.Ismailova

Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika
xodimlari malakasini oshirish va ularni
ixtisoslashtirish markazi o'qituvchisi

TAQRIZCHILAR:

Z.Z.Imamova

Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika
xodimlari malakasini oshirish va ularni
ixtisoslashtirish markazi o'quv ishlari
bo'yicha direktor o'rinbosari

K.F.Shokirova

Olmazor tumani 16-OP bosh shifokori

O'quv dasturi Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari
malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazining Pedagogik kengashida
ko'rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi.

2025« 1 » 03

2/1 - sonli bayonnomoma

O'quv dasturi direktorlar kengashida ko'rib chiqildi, muhokama qilindi,
tasdiqlashga tavsiya etildi.

2025« 5 » 03

2 - sonli bayonnomoma

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilinayotgan Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish kompleks chora-tadbirlari aholiga sifatli tibbiy yordam ko'rsatish va patronajning samarali modellarini joriy etish hamda tibbiy xizmat samaradorligi, sifati, qamrovini oshirish uchun asos bo'lib kelmoqda. Shuningdek, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va kasalliklar profilaktikasi sog'liqni saqlash tizimining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi jadal rivojlanayotgan davlatlar safiga kirib, uning barcha jabhalarida keng qamrovli islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, birlamchi tibbiy-sanitariya yordami tizimini takomillashtirish yo'li bilan shahar va qishloqlarda oilaviy poliklinikalar tashkil etildi, hamda aholiga qulayliklar yaratildi. Bundan tashqari, Respublikada tibbiy yordam sifatini oshirish va ko'lamini yanada kengaytirish, tibbiy xizmatni samarali yo'lga qo'yish, birlamchi tibbiy sanitariya yordami tizimida xonadonlarga patronaj tashriflari sifatini yanada takomillashtirish maqsadida patronaj hamshiralarni o'qitish belgilandi.

Aholi orasida ko'p uchraydigan kasalliklarni davolash yuzasidan 9 ta ustuvor yo'nalish bo'yicha milliy klinik protokollar ishlab chiqilib, SSVning 2024 yil 14 iyundagi 195-son buyrug'i bilan tasdiqlandi. Barcha davolash-profilaktika muassasalari amaliyotiga joriy etish maqsadida SSVning 2024 yil 5 avgustdagi 257-son buyrug'i bilan tibbiyot xodimlarini onlayn va offlayn formatda bosqichma-bosqich o'qitish belgilandi. Mazkur topshiriq ijrosi doirasida ishchi o'quv dasturida alohida modul ajratilib, patronaj

hamshiralarni o'qitish nazarda tutilgan. Ushbu ishchi dastur O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 5 maydagi "Sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish va tibbiyot xodimlarining salohiyatini oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish to'g'risida"gi PF-6221-sonli Farmoni, Sog'liqni saqlash vazirligining 2021yildagi 31.05 08-04-/5082-sonli ko'rsatma xat ijrosini ta'minlash maqsadida birlamchi tibbiy-sanitariya yordami tizimi muassasalari tibbiy brigada patronaj hamshiralarni o'qitish uchun ushbu o'quv dastur tayyorlandi. dasturda fanlar modullarga ajratilgan bo'lib, kasbiy rivojlanish modulida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2025 yil 15-avgustdagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xodimlarning bilim va ko'nikmalarini yanada oshirish xaqida" 255-sonli buyrug'i ijrosini bajarish maqsadida "Tibbiyot sohasida korrupsiyaning oldini olish"moduli kiritildi. Dasturda fanlar modullarga ajratilgan bo'lib, kasbiy rivojlanish moduli fanlar hamda, mutaxassislik fanlar bo'yicha ta'lim olayotganlarning har tomonlama kasbiy, ma'naviy va siyosiy dunyoqarashlarini kengaytirishga qaratilgan yangiliklar, shuningdek, sog'liqni saqlash tizimidagi islohatlar, tibbiyot sohasining ilm – fani va amaliyotining rivojlanishi tendensiyalari va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari to'g'risida ma'lumotlar kiritilib, tibbiy talimda uzluksizligi va uzviyligini, fanlar va bo'limlarni ketma-ketligini ta'minlangan holda tinglovchilarni mustaqil ishlashga va fikrlashga qaratilgan o'quv materiallarini qamrab olgan

1.1 Maqsad:

O'qish natijasida patronaj hamshiralarning mavjud kompetensiyalarini takomillashtirish va kasbiy faoliyat uchun zarur yangi bilim va ko'nikmalarni egallash va kasbiy darajasini oshirish. Amaliyotda profilaktikaning universal modelidan foydalangan holda unga mos ravishda o'zining kasbiy intilishlarini rivojlantirish. Aholi orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, tibbiy madaniyatini oshirish.

1.2. Vazifalar:

- amaliyotda sog'liqni saqlash bo'yicha asosiy qonunlarni, amaldagi direktiv hujjatlarni hamshiralarni ish faoliyatida qo'llay bilishni o'rgatish;
- patronaj xizmatini universal progressiv model asosida tashkillashtirish;
- onalar va bolalarga kasalliklarni oldini olish bo'yicha patronaj xizmatini ko'rsatish;
- bolalarning rivojlanishi, ularni tarbiyalash san'ati, tarbiyasida uchraydigan muammolar bo'yicha xonadonlarda faoliyat yuritish;
- ota-onalar farovonligi, bola tarbiyasida otani jalb qilish, bolalarni shavqatsiz munosabatlardan himoya qilish, stigma va diskriminatsiyani bartaraf etish;
- ota – ona va farzand o'rtasidagi bog'liqlikni rivojlantirish;
- hamkor tashkilotlar bilan ish olib borish;
- tibbiyot brigadalarni tarkibi, maqsadi va vazifalarini bilish;
- aholini mavjud xavf omillaridan kelib chiqib, xavf guruhlariga bo'lish;
- o'rta va yuqori xavf guruhlariga kiruvchi aholining belgilangan muddatlarda tibbiy ko'riklardan o'tishini ta'minlash va salomatligini davriy kuzatuvga olish;
- yuqori xavf guruhlariga kiruvchi va mustaqil ravishda tibbiy muassasasiga kela olmaydigan bemorlarni doimiy kuzatuvga olish, hamda xonadonga borgan holda tibbiy xizmat ko'rsatish;

- tibbiy qo‘rik va davriy kuzatuvlar muddatlarini, maqsadli skrining, ko‘riklar va xonadon patronaj tizimini o‘rgatish;
- antropometrik o‘lchov, tekshiruv ko‘nikmalarini shakllantirish va olingan natijalarni tahlil qilish;
- to‘g‘ri ovqatlanish, jismoniy faollik va zararli odatlar to‘g‘risida maslahat berish asosiy tamoyillarini o‘rgatish;
- bolalarni o‘qitish, salomatligini rivojlantirish va xavfsiz muhit yaratish uchun oilada mavjud imkoniyatlardan ijobiy foydalanish kerakligi yuzasidan tushuntirish ishlarini olib borishga yordam berish;
- xonadonlarga tashrifi davomida patronaj hamshirasi onalar va bolalar salomatligi rivojlanishi bo‘yicha bilim, hamda ko‘nikmalarni taqdim etishi, bolani parvarish qilish borasida ma’lumotlar berishi;
- aholi o‘rtasida tibbiy madaniyatni oshirish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali ko‘p tarqalgan kasalliklarni oldini olishga o‘rgatish.

1.3. Ta’lim oluvchilar toifasi (kontingenti):

Ishchi o‘quv dasturi birlamchi tibbiy–sanitariya yordami muassasalarida faoliyat yurituvchi patronaj hamshiralari, ya’ni mutaxassisligini tasdiklovchi hujjati bo‘lgan hamshiralar uchun mo‘ljallangan.

1.4. O‘quv dasturni o‘zlashtira olish uchun zarur bo‘lgan tinglovchi kompetensiyasi:

- hamshiranining xuquqiy ma’suliyatlari, bemor xuquqlari, roziligi, rad etishi, asosiy hayotiy ko‘rsatkichlarni o‘rganish;
- aholiga patronaj xizmatini tashkil etishdagi direktiv hujjatlarni o‘rganish;
- aholiga patronaj xizmatini tashkil etishdagi me’yoriy hujjatlarni yuritishni bilish;
- tibbiyot psixologiyasi va shaxslararo muloqot ko‘nikmalarini o‘rganish;
- patronaj xizmatini universal-progressiv model asosida tashkillashtirish, xonadonlarda faoliyat yuritish, onalar va bolalarda xavf belgilarini erta aniqlash, kerakli yordam ko‘rsatish, oila va hamkor tashkilotlar bilan ish olib borish;
- ko‘rsatiladigan tibbiy yordam samaradorligini kuchaytirish mezonlarini bilish;
- salomatlik ko‘rsatkichlarini yaxshilash, tamoyillarini bilish;
- mutaxassisligi bo‘yicha chuqur va yangilangan to‘liq nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘lgan, uzluksiz o‘z malakasini oshirishga tayyor bo‘lgan, o‘zgaruvchan sharoitlarga tez moslasha oladigan, etika va deontologiya asoslarini bilish va rioya qilish.

1.5.Dasturning dolzarbligi:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilinayotgan Sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish kompleks chora-tadbirlari aholiga sifatli tibbiy yordam ko‘rsatish va patronajning samarali modellarini joriy etish hamda tibbiy xizmat samaradorligi, sifati, qamrovini oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 noyabrdagi “Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatiga mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy qilish va sog‘liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6110-son Farmoni va

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 5 maydagi "Sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish va tibbiyot xodimlarining salohiyatini oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish to'g'risida"gi PF-6221-sonli Farmoni ijrosini ta'minlash hamda patronaj hamshiralarning kompetensiyasini takomillashtirish maqsadida ishlab chiqilgan. O'zbekiston Respublikasida barcha sohalar kabi sog'liqni saqlash sohasida ham amalga oshirilayotgan tizimli va ulkan islohatlar jadal sur'atlar bilan kechmoqda. Ushbu islohotlar doirasida tibbiy yordamning samaradorligi, sifati va ommabopligini oshirish, patronaj xizmati va dispanserizatsiyaning samarali modellarini yaratish. Sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va kasalliklarni oldini olish, bolalar o'limi va nogironligini kamaytirishga qaratilgan faoliyatni tashkil etish, xususan, ayol va bolaning hayotiga taxdid solayotgan belgilar, ovqatlanish va emlash masalalari bo'yicha xavf omillari aniqlanganda, shoshilinch yordamni ko'rsatish yoki shifokorga yo'llash, yuqumli va yuqumli bo'lmagan kasalliklarni oldini olish bo'yicha tinglovchilar bilimlarini yangilash va mustahkamlashdan iborat. Dasturni tayyorlashda JSST, YuNISEF xalqaro tashkilotlari tomonidan taqdim etilgan materiallardan foydalanildi.

1.6. Dastur hajmi: 144 kredit (kuniga 6 kreditdan 24 kun).

1.7. O'qish shakli:

o'qtish ishdan ajralgan holda/ajralmagan holda/on/offline o'tkaziladi.

1.8. Mashg'ulotlarni o'tish tartibi: Mashg'ulotlar mavjud vaziyatni inobatga olgan holda/kuniga 6 kreditdan.

1.9. Malaka oshirishdan so'ng: o'quv dasturni tamomlagan va yakuniy attestatsiyani topshirgan tinglovchilarga malaka oshirganligi haqida Davlat talablariga asoslangan sertifikat taqdim etiladi.

2. REJALASHTIRILAYOTGAN TA'LIM NATIJALARI

2.1. Rejalashtirilayotgan ta'lim (natijalari)dan so'ng tinglovchi kompetensiyasi: Mutaxassisligi bo'yicha malaka oshirish o'quv dasturini o'zlashtirishi natijasida mutaxassislikni xususiyatlaridan kelib chiqib malakaviy xarakteristika bo'yicha yangi umumiy va malakaviy ko'nikmalaritakomillashtiriladi, quyidagi kasbiy kompetensiyasi rivojlanadi:

- aholi orasida tibbiy madaniyat, sog'lom turmush tarzi, kasallik rivojlanishining oldini olish borasida profilaktik sanitariya targ'ibot tadbirlarini olib borish;
- sog'liqni saqlash qonunchiligi asoslari va hamshiralik xizmatini tashkil etish bo'yicha me'yoriy hujjatlar;
- patronaj xizmatini universal-progressiv model asosida tashkillashtirish;
- onalar va bolalarga kasalliklarni oldini olish bo'yicha patronaj xizmatini ko'rsatish;
- bolalarning rivojlanishi, ularni tarbiyalash san'ati, tarbiyasida uchraydigan muammolar bo'yicha xonadonlarda faoliyat yuritish;
- ota-onalar farovonligi, bola tarbiyasida otani jalb qilish, bolalarni shavqatsiz munosabatlardan ximoya qilish, stigma va diskriminatsiyani bartaraf etish;
- ota – ona va farzand o'rtasidagi bog'liqlikni rivojlantirish;
- hamkor tashkilotlar bilan ish olib borish;
- to'g'ri ovqatlanishni targ'ib qilish, bolalarni o'sish va rivojlanishini nazorat qilish;
- zararli odatlarga qarshi kurashish, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini singdirish va shakllantirish, shu jumladan o'sib kelayotgan avlodni sog'lomlashtirish, onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish;
- bemorlarga hamshiralik parvarishini tashkil etish, hamshiralik jarayonini boshqarish;

- kasallik erta va yashirin turlarini, xavf omillarini aniqlash uchun zamonaviy profilaktik ishlarni amalga oshirishdagi kasbiy ko'nikmalari mustahkamlanadi;
- biriktirilgan aholiga eng ko'p uchraydigan kasalliklarni oldini olish va parvarishlash bo'yicha chet el tajribalaridan foydalangan holda sifatli tibbiy xizmat ko'rsatishdagi kasbiy ko'nikmalari takomillashtiriladi;
- bolalar salomatligini mustahkamlash, sog'lomlashtirish, profilaktikasi asoslarini kasallikni erta va yashirin turlarini, xavf omillarini aniqlash uchun zamonaviy birlamchi, ikkilamchi profilaktik ishlarni amalga oshirish;
- nafas a'zolari kasalliklaridatekshirishusullarivatashxisqo'yish;
- antropometriya, tana og'irligi indeksini aniqlash.

3. DASTUR MAZMUNI.

Aholi orasida sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish, aholining tibbiy va valeologik bilimini oshirish, o'z salomatligiga javobgarlikni oshirish, maqsadli guruhlarda sog'lom turmush tarzi tamoyillariga asoslanib suhbatlar o'tkazish, kasalliklarni profilaktikasini amalga oshirish usullarini tinglovchilarga yetkazish. Aholi orasida yuqumli va yuqumsiz kasalliklarning xavf omillarini aniqlash, chekish va alkogolga qarshi kurash chora-tadbirlarini, shu bilan birga klinik protokollar asosida yuqumsiz kasalliklarni integrallashgan usulda olib borish, aholi salomatlik va fiziologik xolatidan kelib chiqib patronaj xizmatini tashkil etishda hamshiraning vazifalari, universal-progressiv patronaj dasturini samarali qo'llash, o'rta tibbiyot xodimining etika va deontologiyasi bilim va ko'nikmalarini shakllantirish. Qisqa muddatli aralashuvlarda konsultatsiyalar o'tkazishda va zamonaviy diagnostika usullaridan foydalanishda kompyuter texnologiyasidan foydalanish, aholiga reabilitatsiya va palliativ yordam xizmatini ko'rsatish, qandli diabet kasalligi asoratlariida hamshiralik parvarishi va bemorlarda o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini hosil etish kabi malakalariga ega bo'lishi ko'zda tutilgan. Undan tashqari dasturda milliy g'oya, sog'liqni saqlash tizimidagi islohatlar, sanitar-epidemiologik qoidalar, patronaj hamshira tomonidan aholiga ko'rsatiladigan muolajalar, yuqumli kasalliklar o'chog'ida olib boriladigan chora tadbirlar, ona va bola salomatligini mustahkamlashga qaratilgan, zarur xolatlarda bemorlarga kechiktirib bo'lmaydigan tez tibbiy yordam ko'rsatish xaqida aloxida modullar kiritilgan.

3. DASTUR MAZMUNI

3.1. Tibbiyot brigada hamshiralari kursi o'quv rejasi

№	Modul va mavzular nomi	Kredit	Auditoriya mashg'ulotlari		Seminar	Attestatsiya
			Nazariy mashg'ulot	Amaliy mashg'ulot		
1.0	Kasbiy rivojlantirish moduli	32	16	16		
1.1	Modul.Tibbiyot sohasida korrupsiyaning oldini olish	4	4	-		

1.2	Modul. Tibbiyotda raqamli texnologiyalar	6	2	4		
1.3	Modul. Shaxslar o'rtasidagi muloqat va tibbiy maslahat	6	4	2		
1.4	Modul. Infekcion nazorat.	6	4	2		
1.5	Modul. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik	10	4	6		
2.0	Mutaxassislik fanlar moduli	104	44	60		
2.1	Modul. Tibbiyot brigadalarining maqsad va vazifalari.	6	4	2		
2.2	Modul. BTSYo muassasalarida bolalarga universal-progressiv modeli bo'yicha xizmat ko'rsatish.	26	16	10		
2.3	Modul. Bolalar kasalliklarida hamshiralik parvarishi.	12	4	8		
2.4	Modul. Milliy klinik protokollar asosida yuqumli bo'lmagan kasalliklarni oldini olish.	36	12	24		
2.5	Modul. Uy sharoitida reabilitatsiyaning asosiy tamoyillari.	12	4	8		
2.6	Modul. Gerantologiyada patronajning o'ziga hos xususiyati.	6	2	4		
2.7	Modul. Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun xavfli holatlarda birinchi yordam ko'rsatish.	6	2	4		
3.0	Tanlov fanlar moduli	4			4	
4.0	Attestatsiya	4				4
	Jami:	144	60	76	4	4

“Tibbiyot brigada hamshiralari” kursi o‘quv modullarining mazmuni.

1.1 Modul: Tibbiyot sohasida korrupsiyaning oldini olish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasining yaqin va istiqbolga mo‘ljallangan Harakatlar dasturi muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilishidagi nutqida belgilab berilgan Sog‘liqni saqlash tizimidagi dasturlarni samarali va to‘liq amalga oshirishdagi asosiy vazifalar. Yangi O‘zbekiston tibbiyoti-yangicha yondashuvlar asosida transformatsiya qilinayotgan tizim. Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida tibbiyotga doir ustuvor yo‘nalishlarning mazmun-mohiyati.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ayollar orasida onkologik kasalliklarni nazorat qilishga doir davlat dasturi to‘g‘risi”dagi hamda “Tibbiy va sog‘lomlashtirish turizmini yanada rivojlantirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlarining ahamiyati.Sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirishdagi ustuvor vazifalar. “Aholi salomatligi-2030” milliy strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari,vazifalari va asosiy indikatorlari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020-yil 12-noyabrdagi “Sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug‘urtasi

mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 4890-sonli shuningdek 2024 yil 5-sentabrda "Davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini joriy etishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi 311-sonli Qarorlarining mazmun-mohiyati.

Davlat tibbiy sug'urtasi-sifatli tibbiy xizmat kafolati. Davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini joriy qilish bilan bog'liq islohotlar. Davlat tibbiy sug'urtasining huquqiy asoslari, mexanizmlari va joriy etish bosqichlari haqida. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tibbiy sug'urtasiga oid norma haqida.

1.2 Modul. Tibbiyotda raqamli texnologiyalar

Tibbiyot sohasida raqamli texnologiyalaridan foydalanishdagi nazariy va amaliy bilimlarni egallash, Bemor ma'lumotlarini boshqarish, tibbiy statistik ma'lumotlarni to'g'ri tahlil qilish, tahlil qilingan natijalardan kelib chiqqan holda kasallikning oldini olish yoki davolash yo'llarini aniqlash, axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida asosiy amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish.

Internet tarmog'ida ishlash, axborot qidirish va ulardan foydalanish, tibbiyot axborot tizimlari xususiyatlari, ma'lumotlar bazasini tashkil etish, mobil tibbiyot ilovalari va axborot xavfsizligi asoslarini, AI asosida diagnostika, chatbotlar va virtual yordamchilardan foydalanishni bilishi kerak. "Tibbiyotda raqamli texnologiyalar" o'quv modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

- tibbiyotda raqamli texnologiyalar tushunchalari va tasavvurlarining umumiyligi;
- axborot tushunchalari va turlari. Tibbiyot masalarini yechishda informatikaning o'rni;
- hozirgi zamonda informatikaning o'rni va roli, ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish.

1.3. Modul. Shaxslar o'rtasidagi muloqot va tibbiy maslahat.

Jamiyat va bemorning salomatligi yo'lida halol mehnat qilish, har qanday sharoitda ham tibbiy yordam ko'rsatish. Bemorga diqqat e'tibor va g'amxo'rlik bilan munosabatda bo'lish va o'zining barcha xatti-harakatlarida yuksak insoniy qoidalarga rioya qilish. Jamoada, individual va turli guruhlarda shaxslararo muloqot madaniyati. Kasbning oliyjanob an'analarini saqlash. Zamonaviy tibbiyot amaliyotida sezilarli e'tibor tibbiyot xodimlarining kasbiy ko'nikmalariga, bemorlar bilan ularning gender va madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda muloqot qilish qobiliyatiga qaratilmoqda. Genderning salomatlikka ta'siri. Genderga sezgir tibbiy maslahat va aloqa to'g'risida tushuncha. Ichki madaniyat qoidalari, intizomga rioya qilish. Jamoat mulki tushunchasi va unga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish. Hamjihatlik va kollegiallik tuyg'ulariga rioya qilish. Neytral va xavfsiz muhitni yaratish. Salbiy munosabat va fikrlardan qochish. Tibbiy maslahatni hurmat va e'tibor bilan boshlash. Faol tinglash va empatiya. Bemorning ehtiyojlarini baholash. Shaxsiy chegaralarni hurmat qilish. Tushunarli tildan foydalanish. Tibbiyot xodimining bemor bilan muloqot qilish qobiliyati. Muloqot ko'nikmalarining turlari va ularning bir-biri bilan o'zaro bog'liqligi. Tibbiy maslahatning asosiy tuzilishi va ko'nikmalarining o'zaro bog'liqligi. Tibbiy maslahatni tartiblashtirish. Noverbal tildan foydalanish. O'zaro tushunishga erishish: bemorning holatini inobatga olish. Samarali muloqotning xususiyatlari.

1.4. Modul. Infekcion nazorat.

Infekcion nazorat, maqsad va vazifalari. Shifoxona ichi infeksiyasi, kelib chiqish sabablari, profilaktikasi. Sanitariya epidemiologiya sohasida qo'llaniladigan me'yoriy hujjatlar. Davolash profilaktika muassasalarida shifoxona ichi infeksiyasini oldini olish chora tadbirlarini o'tkazishda o'rta tibbiy hodim vazifalari. Karantin va o'ta havfli infeksiyalar

haqida tushuncha. Karantin va o'ta havfli infeksiyalar profilaktikasini amalga oshirish chora tadbirlari, himoyalash tamoyillari. OIV/OITS haqida umumiy ma'lumot. OIV/OITS tarqalishini oldini olish choralari. Avariya holatlar yuzaga kelganda tibbiy hodim taktikasi. Himoya kiyimlari va ulardan foydalanish tartibi.

1.5. Modul. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik

Sog'lom turmush tarzini tashkil etish asoslari. Tibbiyot valeologiyasi. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda maqsadli guruhlar bilan ishlash. Atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka ta'siri, to'g'ri ovqatlanish prinsiplari, kun tartibini to'g'ri tashkil etish, jismoniy faollik va chiniqishning salomatlikdagi ahamiyati, zararli odatlarning organizmga ta'siri, tibbiy ko'riklarni tashkil etish va aholini jalb etish.

2.1 Modul. Tibbiyot brigadalarining maqsad va vazifalari.

Patronaj yangi modelining an'anaviysidan farqi. Asosiy tamoyillar. Patronaj xizmatining universal-progressiv modelini amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish orqali bola, ota-ona, oila va jamiyat tarafidan ijobiy natijalarga erishish mumkin. Birlamchi tibbiy sanitariya yordami muassasalarida tibbiyot brigadalarini tashkil etish va ularning vazifalari. Aholini tibbiy xatlovdan o'tkazish. Aholining salomatlik va fiziologik holatidan kelib chiqib, ularni 4ta guruhga bo'lish. Aholiga profilaktik va chuqurlashtirilgan tibbiy ko'riklarni tashkil etish. Aholining salomatlik va fiziologik holatidan kelib chiqib, ularni 4ta guruhga bo'lish.

1-tayanch guruhi - sog'lom shaxslar (surunkali kasalliklar aniqlanmagan, bunday kasalliklarning rivojlanish xavfi mavjud bo'lmagan kasalliklar xavfi past bo'lgan, dispanser kuzatuviga muhtoj bo'lmagan shaxslar). 2-past xavf guruhi - surunkali kasalliklar aniqlanmagan, ammo kasalliklar rivojlanishining xavfi (ortiqcha vazn, semizlik, zararli odatlar-chekish, spirtli ichimliklar iste'mol qilish) yuqori bo'lgan, dispanser nazoratiga muhtoj bo'lgan shaxslar. 3-o'rta xavf guruhi - surunkali kasalliklar bilan kasallangan, dispanser nazoratiga muhtoj bo'lgan, tibbiy yordam ko'rsatishni talab qiladigan shaxslar.

4-yuqori xavf guruhi - dispanser nazoratiga muhtoj bo'lgan, kamida 2 ta yoki undan ortiq surunkali kasalliklari mavjud, 1 ta surunkali kasallikning asoratlari aniqlangan, ixtisoslashtirilgan, yuqori texnologik tibbiy yordam ko'rsatishni talab qiladigan shaxslar. Tibbiy xatlov paytida xonadonning har bir yashovchisida antropometrik o'lchovlar va tekshiruvlar amalga oshiriladi va tegishli hujjatlarga qayd qilinadi.

2.2 Modul. B.TSYo muassasalarida onalar va bolalarga universal progressiv modeli bo'yicha xizmat ko'rsatish. Ilk bolalik yillari. Bola hayotining dastlabki uch yilida miya rivojlanishi. Bolaning asab va ruhiy rivojlanishini baxolash. Bolalar organizmining yoshiga nisbatano'zgarishi xususiyatlari. Bolaning o'sishi, jismoniy, psixomotor rivojlanishi monitoringi, tamoyillari.

Bolaning o'sish va rivojlanish ko'rsatkichlari. Antropometriya. 6 oydan 5yoshgacha bo'lgan bolalarni ovqatlantirish. Turlari: tabiiy, sun'iy, aralash. Ularni ta'rifi. Onalar va bolalarga kasalliklarni oldini olish bo'yicha patronaj xizmatini ko'rsatish. Bir yoshgacha va bir yoshdan katta bolalarni ovqatlantirish. Turlari: tabiiy, sun'iy, aralash. Ularni ta'rifi. Kasallikning bola hayotiga xavf soluvchi belgilari Shamollagan, yo'talayotgan yoki qiynalib nafas olayotgan bola, quloq og'rig'i, diareya. Ilk bolalik yillari haqida tushuncha berish. Bola hayotining dastlabki uch yilida miya rivojlanishining xususiyatlari. Erta bolalik davriga yo'naltirilgan sarmoyaning samaradorligi. Xavfni kamaytiruvchi omillar haqida ma'lumot berish. Onalar va bolalarga kasalliklarni oldini olish bo'yicha patronaj

xizmatini ko'rsatish. Shaxslararo muloqot ko'nikmalarini shakllantirish. Bolalarda uchraydigan kamqonlik va Gipo-avitaminozda hamshiralik parvarishi. Anemiyada universal-progressiv modeldan foydalanish. Temir moddasi va vitaminlarga boy oziq-ovqatlar ist'mol qilish. Gipo-avitaminozda hamshiralik parvarishi. Universal-progressiv reja asosida profilaktik emlash. Emlash bilan bog'liq bo'lgan muammolarni aniqlash va bartaraf qilish. O'RVI, ko'kyo'tal, epidemik parotit, difteriya, toshma bilan kechadigan (qizamiq, qizilcha, skarlatina, suvchechak) kasalliklari bilan og'rigan bemorlarni klinikasini erta aniqlash, differensial diagnostikasi, bemorlar shikoyatlarini klinik tahlil qilish. Shoshilinch xabarnoma varaqasini yuritish. Bemor bolaning kun tartibi, parhezini tashkil etish, davo choralari va profilaktikasi. Hamshiralik parvarishini olib borish.

2.3 Modul. Bolalar kasalliklarida hamshiralik parvarishi. Bolalarda raxit, spazmofiliya kasalliklarida hamshira parvarishi. Bolalarda uchraydigan allergik diatezlarda hamshira parvarishi. Raxit ta'rifi, etiologiyasi, belgilari, diagnostikasi, davosi hamshiralik parvarishi. Spazmofiliya sindromi: ta'rifi, etiologiyasi, belgilari, diagnostikasi, davosi hamshiralik parvarishi. Allergik diatez ta'rifi, etiologiyasi, belgilari, diagnostikasi, davosi hamshiralik parvarishi. Bolalarda nafas a'zolari tizimi kasalliklarini yoshga xos xususiyatlari. Bolalarda laringit, bronxit va pnevmoniyaning kechishi va hamshiralik parvarishi Bolalarda bronxial astmada hamshira parvarishi. Havotomchi yo'li bilan yuqadigan toshmali kasalliklar. Hamshiralik parvarishini olib borish. Endokrin tizimi a'zolari kasalliklarida hamshiralik parvarishi. Endokrin tizimi a'zolari kasalliklar ta'rifi, etiologiyasi, klinik belgilari, tashxisoti, davosi, hamshiralik parvarishi. Qandli diabet ta'rifi, etiologiyasi, belgilari, diagnostikasi, davosi va parvarishi. Giper va gipoglikemik komalarni taqqoslash. Bolalarda uchraydigan qandli diabet kasalligida hamshiralik parvarishi. Yod moddasi yetishmovchiligida universal-progressiv modeldan foydalanish. Raxit ta'rifi, etiologiyasi, belgilari, diagnostikasi, davosi hamshiralik parvarishi. Spazmofiliya sindromi: ta'rifi, etiologiyasi, belgilari, diagnostikasi, davosi hamshiralik parvarishi.

2.4 Modul. Milliy klinik protokollar asosida yuqumli bo'lmagan kasalliklarni oldini olish. Nafas olish tizimi kasalliklari bronxit(o'tkir va surunkali), zotiljam kasalliklarida hamshira parvarishi. Bronxial astma hurujida hamshiraning yordami va parvarishi. Klinik protokollar asosida ayrim yuqumsiz kasalliklarni integrallashgan usulda olib borish. Nafas olish tizimi kasalliklarida hamshiralik parvarishi, hamshiralik tekshiruvlari (pikfloumetriya va spirometriya), bajaradigan muolajalar, ingalyatorlardan foydalanish, kasalliklarni oldini olishda maslahat va tavsiyalar berish. Bronxit, bronxial astma kasalliklarni kelib chiqishida ekologiya, atrof-muhit, infeksiyaning ta'siri. Bronxial astma va o'pkaning surunkali obstruktiv kasalliklarini olib borishda hamshiralik parvarishi. Kasbga aloqador nafas yo'llari kasalliklari bilan og'rigan bemorlar parvarishining o'ziga xos xususiyatlari. Sog'lom turmush tarzini olib borishda hamshiraning o'rni.

Yurak qon-tomir tizimi kasalliklarida hamshiralik parvarishi. Yurak qon-tomir tizimi kasalliklari ateroskleroz, gipertoniya da hamshiralik parvarishi. YuQT kasalliklari, xavfli omillarini aniqlash va baholash, ularning asoratlarini oldini olish. Arterial gipertenziya,

kelib chiqish sabablari, kasallik rivojlanishini oldini olishni bemorlarga tushuntirish. Ateroskleroz, arterial gipertoniya kasalligida hamshiralik muolajalarini bajarish va parvarishlash. Yurak-qon tomir kasalliklarida reabilitatsiya.

Ovqat hazm kilish tizimi kasalliklarida hamshiralik parvarishi. Gastrit va 12 barmoq ichak yara kasalligida hamshiralik parvarishi. Jigar va o't yo'llari kasalliklari (gepatitlar, xolesistit, jigar sirrozi, pankreatit)da hamshiralik parvarishi.

2.5 Modul. Uy sharoitida reabilitatsiyaning asosiy tamoyillari. Palliativ yordam tushunchasi. Og'ir bemorning holatini baholash va ularning ehtiyojlarini aniqlash. Og'riq darajasini baholash va og'riq sindromini davolash. Yondosh simptomlar (ko'ngil aynishi, qabziyat, bo'g'ilish)ni bartaraf qilish uchun ko'rsatmalar berish. Bemorga g'amxo'rlik qilayotgan shaxslarni o'qitish va maslahat berish. Bemorning tibbiy, psixologik, ijtimoiy va boshqa ehtiyojlarini qondirish uchun xamkor tashkilotlar bilan hamkorlik qilish. O'tkir miya-qon tomir yetishmovchiligida hamshiralik parvarishi.

O'zgalar parvarishiga muxtoj shaxslarda yotoq yaralarini oldini olish va parvarishlash.

2.6 Modul. Gerantologiyada patronajning o'ziga hos xususiyati. Geriologiya haqida tushuncha. Geriologiyaning maqsad va vazifalari. Gerioprofilaktika asosida qariyalarda kasalliklarni oldini olish. Ularning ehtiyojlarini aniqlash.. Og'riq darajasini baholash va og'riq sindromini davolash. Yondosh simptomlar (ko'ngil aynishi, qabziyat, bo'g'ilish)ni bartaraf qilish uchun ko'rsatmalar berish. Bemorga g'amxo'rlik qilayotgan shaxslarni o'qitish va maslahat berish. Bemorning tibbiy, psixologik, ijtimoiy va boshqa ehtiyojlarini qondirish uchun xamkor tashkilotlar bilan hamkorlik qilish O'tkir miya-qon tomir yetishmovchiligida hamshiralik parvarishi. O'zgalar parvarishiga muxtoj shaxslarda yotoq yaralarini oldini olish va parvarishlash.

Patronaj hamshirasi ish faoliyatining sifat monitoringi.

2.7 Modul. Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun xavfli holatlarda birinchi yordam ko'rsatish. Favqulodda vaziyatlar haqida asosiy tushuncha. Favqulodda vaziyatlar, ularning sabablari, turlari. Tibbiy saralash va triaj asoslari. Shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish bosqichlari

va qoidalari. Ommaviy talofatlar holatida evakuatsiya

va birinchi yordam ko'rsatish tamoyillari. Qon ketishni to'xtatish usullari. Yengil va og'ir kuyishlarda tibbiy yordam ko'rsatish. Elektr jarohatlari, ochiq va yopiq jarohatlar, sinishlar, uzoq muddat ezilishda shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish. Hushdan ketish, kollaps, shok, koma haqida umumiy ma'lumot. Hushdan ketish, kollaps holatlarida bemorga yordam ko'rsatish. Shok holatlarida yordam ko'rsatish algoritmi (gipovolemik, anafilaktik, travmatik). Komatoz holatda bemorni baholash va dastlabki yordam ko'rsatish. Terminal holat bosqichlari. Klinik va biologik o'lim belgilari. CPR – yurak-o'pka reanimatsiyasining nazariy asoslari. Kattalar va bolalarda yurak massaji va sun'iy nafas berishni o'tkazish algoritmi.

4. DASTURNI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILIY-PEDAGOGIK TA'MINOTI

4.1. O'quv bazalari: Respublika o'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Shifokorlar ko'chasi-2 , 14-uy. Davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

Amaliyot bazasi: davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

4.2. Mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jixozlar ro'yxati:

Modul bo'yicha dars olib borish uchun nazariy, amaliy va seminar darslar o'tiladigan o'quv auditoriyalari.

Multimediali jamlanma: slaydlar to'plami bo'lgan rrt ko'rinishli ma'ruzalar, SD diskda ko'rgazma materiallar, ekran, videofilmlar.

Klinik amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash trening o'kuv xonasi, mulyaj, fantom, nazorat savollarining elektron.Mavzular bo'yicha turli jadvallar, tasviriy ko'rgazma va qo'llanmalar.

4.3. ADABIYOTLAR RO'YXATI:

4.3.1. Qonunchilik va me'yoriy-xuquqiy hujjatlar:

- 1.2020 yil 7 apreldagi "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4666-sonli qarori
- 2.O'zbekiston Respublikasi Sog'likni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli "Tibbiy-sanitariya va farmasevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish buyicha me'yoriy xujjatlarni yanada takomillashtirish to'g'risidagi" buyrug'i
- 3.Sog'liqni saqlash xodimlari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimi faoliyatini tashkil etish va boshqarishga qo'yiladigan davlat talablari
- 4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5.05.2017 yildagi "O'zbekiston Respublikasida tibbiy ta'lim tizimini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2956-son qarori
- 5.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 6.05.2019 yildagi № 4310-sonli "Tibbiyot va farmasevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori
- 6.№377.13.07.2017y."O'zbekiston Respublikasi axolisiga ko'rsatiladigan ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"
7. O'zbekiston Respublikasi Sog'likni saqlash vazirligining 2013 yildagi №225 sonli buyrug'i "Bolalarga statsionar yordam ko'rsatish"
- 8.O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risidagi qonuni"
- 9.Sog'liqni saqlash xodimlari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimi faoliyatini tashkil etish va boshqarishga qo'yiladigan davlat talablari;
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5.05.2017 yildagi "O'zbekiston Respublikasida tibbiy ta'lim tizimini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2956-son qarori;
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 7.12.2018 yildagi № 5590-sonli "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni;
- 12.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 6.05.2019 yildagi № 4310-sonli "Tibbiyot va farmasevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori;
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021-yillarda mamlakatimizni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" 07.02.2017 yildagi Farmoni;

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 06.09.2019 yildagi Farmoni;
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Reproduktiv yoshdagi ayollar, homiladorlar va bolalarga ko‘rsatiladigan tibbiy yordam sifatini oshirish va ko‘lamini yanada kengaytirish to‘g‘risida”gi 09.11.2019 yildagi Qarori;
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 7.12.2018 yildagi № 5590-sonli “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni;
17. O‘zbekiston Respublikasi VMning 27.09.2017 yildagi № 769-sonli “Tibbiy kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori;
18. O‘zbekiston Respublikasi VMning 13.09.2017 yildagi №718-sonli “BTSYo muassasalarida tibbiy xizmatlar sifatini yaxshilashga, o‘tkazilayotgan profilaktika tadbirlarining samaradorligi uchun mas’uliyatni oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Qarori;
19. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘likni saqlash vazirligining 08.09.2017 yildagi №517-sonli “Toshkent shahar ko‘p tarmoqli markaziy va oilaviy poliklinikalar faoliyatini tashkil etish xaqida” buyrug‘i;
20. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘likni saqlash vazirligining 18.09.2017 yildagi №535-sonli “BTSYo muassasalarida profilaktik chora-tadbirlarning samaradorligi uchun mas’ulligini oshirish choralari to‘g‘risida” buyrug‘i va boshqa me‘yoriy hujjatlar.

4.3.2 Tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. G.G.Jdanov. A.P.Zilber. “Reanimatsiya i intensivnaya terapiya” Uchebnik.
2. B.N.Jukov. P.N.Mishensev “Reanimatologiya ” Uchebnik. 2009 g.
3. A.Z.Manevich A.D.Ploxoy. “Intesivnaya terapiya, reanimatologiya, anesteziologiya” Uchebnik. 2012 g.
4. A.I.Levshankov. A.G.Klimov “Sestrinskoe delo” Uchebnik 2009 g.
5. Barkina N.V., Kabaruxin A.B.. Prakticheskoe rukovodstvo po travmatologii dlya feldsherov. Rostov- na Donu, Feniks, 2009 god
6. “Bemorlarni uyda va shifoxonada parvarish qilish” Toshkent, Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2003 yil.
7. Vozmitina A.V., Usevich T.L. “Medsestra xirurgicheskogo profilya”
8. “Hammabop tibbiyot qo‘llanmasi» Toshkent, 2006 yil.
9. L.Allan. Iskusstvennoe pitanie.
10. Nazirov F.G. “Bemorlarni uyda va shifoxonada parvarish qilish“ Toshkent – 2003 darslik.
11. V.N.Turaqulov F.A.Qurbonov” Anesteziologiya va reanimatsiyada hamshiralik parvarishi” o‘quv qo‘llanma 2019 y
12. U.G‘.Shomirzaeva. Q.B.Boltaev “Umumiy anesteziologiya va reanimatologiyadan qo‘llanma”
13. B.N.Jukov “Reanimatologiya” Moskva Izdatelskiy sentr “Akademiya” 2007 g.
14. Intensiv terapiya asoslari Agzamxodjaev T.S., Yusupov A.S., o‘quv qo‘llanma, Toshkent, 2014 y.
15. Kombinirlangan multimodal anesteziyani abdominal kasallarda qo‘llash usuli. Agzamxodjaev T.S., Fayziev O.Ya., Yusupov A.S., Uslubiy qo‘llanma Tashkent, 2019 y.
16. «Klinicheskaya anesteziya» Perevod s angliyskogo A.Ye.Lyubovoy i prof. S.V.Sviridova 2014 g.

4.3.3. Elektron ta'lim resurslari

www.edu.uz

www.minzdrav.uz

<http://www.medpoisk.ru/>

<http://www.rusmedserv.com/>

www.medi.ru

www.medlinks.ru

www.medscape.com

www.medland.ru

www.med-lib.ru

www.ksmed.ru/pat/gynecology

www.medsan.ru

5.YaKUNIY ATTESTATSIYA

5.1. Yakuniy attestatsiyaga qo'yiladigan talablar, o'tkazish shakli va baholash mezonlari.

Yakuniy attestatsiya O'zR SSVning 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli buyrug'i 3-ilovasidagi «Tibbiy-sanitariya va farmasevtika kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta'lim muassasalarida tinglovchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini baxolash to'grisidagi Nizom» ga asosan o'tkaziladi.